

## QQTEPA MA'DAN MAYDONIDA MA'DANLASHUVNI O'RGANISH TARIXI

**Yo'ldoshev Zokir Doniyor o'g'li**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti  
Geologiya va muhandislik geologiyasi fakulteti  
Geologiya (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi  
1-kurs magistranti  
E-mail: [yuldoshevz1995@gmail.com](mailto:yuldoshevz1995@gmail.com)

**Keldibekova Zilola Asror qizi**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti  
Geologiya va muhandislik geologiyasi fakulteti  
Geologiya (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi  
1-kurs magistranti  
E-mail: [keldibekovazilola0707@gmail.com](mailto:keldibekovazilola0707@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Oqtepa ma'danli maydonida kumush (Oqtepa), apatit (Dyushali) va uran (Rezaksoy) konlari joylashgan. Zamonaviy texnik asbob uskunalar rivojlangani sari qimmatbaho va noyob yer elementlarini tog' jinslari tarkibidan ajratib olish imkoni paydo bo'lyapti.. Kondan unumli foydalanish va yuqori natijalarga erishish uchun avvalambor maydonni o'rganilish tarixi muhim ahamiyat kasb etadi. Oqtepa ma'dan maydoni O'rta Osiyo bo'yicha besh elementli unikal konlardan biri hisoblanib, ushbu kondan oltin, kumush, uran, platina va vismut qazib olingan. Hozirda bu konni qayta ishga tushirish mumkin va konning o'rganilish tarixi bu kabi masalalar yechimini topishda yordam beradi

**Kalit so'zlar:** tog' jinslari, foydali qazilmalar, geomorfologik tadqiqot, gematit ma'danlashuv, geologik ekspeditsiya, shlix namunalari, flyuoritli ma'danlashuv zonalari, gabbro, monsogabbro, monsonit.

### ABSTRACT

The Oqtepa ore field is home to deposits of silver (Oqtepa), apatite (Dyushali) and uranium (Rezaksoy). With the development of modern technical equipment, it is possible to distinguish valuable and unique earth elements from the composition of rocks.. The history of the study of the field is primarily important for the efficient use of the mine and for high results. The Oqtepa ore field was considered one of the five-element unique mines in Central Asia, from which gold, silver, uranium, platinum and bismuth were mined. It is now possible to restart the mine, and the history of the mine's study will help to find solutions to such issues

**Keywords:** rocks, minerals, geomorphological survey, hematite mining, geological expedition, schlix samples, fluorite mining zones, gabbro, monso-gabbro, monsonite.

## KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari yer osti boyliklarini qidirish, baholash va ishlab chiqarishga jalb qilishda katta turtki bo‘lishi kutilmoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hudud haqidagi dastlabki o‘rganish ishlari XIX asrning oxirlarida N.A.Seversov, Mushketov I.V., Romanovskiy G.D., Mashkovtsev S.F. va boshqa bir qator tadqiqotchilar tomonidan hudud maydonlarida amalga oshirgan kuzatishlar natijalarida keltiriladi. Bu tadqiqotchilarning ishlari asosan O‘rta Osiyo geologiyasini o‘rganish asosida amalga oshirilgan.[4]

1932-yildan boshlab 1936-yilga qadar A.S.Adelung, N.V.Ivanov va N.M.Tsinisin kabi tadqiqotchilar tomonidan Chotqol va Qurama tizma tog‘lari hududini geologik xaritalash bo‘yicha tizimli tarzda ishlab chiqarish, 1:500000 masshtabdagi tasvirga olish ishlari olib borilgan. Bu olib borilgan tadqiqotlarning natijasida bir qator maqolalar va umumlashma xulosalar yozilgan.

Hududning dastlabki, nisbatan batafsil tarzdagi geologik jihatdan tavsifi bo‘yicha ma‘lumotlar A.S.Adelung tomonidan olib borilgan ishlarning umumlashma holda nashri sifatida, 1937-yilda O‘zSSR geologiyasi 1-tomi tarkibida nashrdan chiqarilgan. 1933-yildan boshlab, ushbu hududda qidiruv-razvedka ishlari amalga oshirilgan.[1]

1939-40-yillarda hududda, Chodaksoy yuqori qismi bo‘ylab, Y.A.Skvorsov rahbarligidagi geomorfologik tadqiqotlar olib borilgan, shuningdek bir qator yillar davomida Tyan-Shan tizma tog‘larining janubiy-g‘arbiy hududlari bo‘ylab, katta maydonlarda geomorfologik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu ishlarning natijasida muallif tomonidan keltirilgan umumlashma ishlarda Tyan-Shan hududining janubiy-g‘arbiy qismi bo‘yicha geomorfologik tavsiflar keltirilgan.

1941-yilda Chodak daryosi havzasi hududida I.M.Safonov rahbarligida qidiruv ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, bunda 1:100000 masshtabdagi tasvirga olishlar o‘tkazilgan va shuningdek hudud qatlam jinslari bo‘yicha shlix namunalari bo‘yicha tekshiruvlar amalga oshirilgan. Bu ishlar natijasida hududning geologik xaritasi tuzib chiqilgan, xarita tarkibida Rizoq-Chodak, Chorkezar, G‘ova daryolarining havzalari hududi, Chodak va Qizilsuv daryolari (Rizoq) hududlari 1:100000 masshtabda tasvirlangan. Bu hududlarda bir qator flyuorit, kamyob metallar hamda Chodak daryosi havzasi hududida gematit ma‘danlar rivojlangan sohalari aniqlangan. Ushbu yilning o‘zida 1941-yil Angren daryosining yuqorigi qismida O‘zR FA Geologiya instituti

xodimlaridan iborat, I.M.Efrimenko boshchiligidagi geologik ekspeditsiya ish olib borgan. Bu ekspeditsiya tomonidan hududda qalay, molibden, volfram va boshqa bir qator metallar bo'yicha istiqbolli deb belgilangan qazilma konlari hududlari aniqlangan.

Ushbu ishlar natijasida hududning Shimoliy-g'arbiy qismlari bo'ylab joylashgan yirik o'pirilish sohalarida metal ma'danlariga istiqbolli hududlar aniqlangan. 1942-yilda A.S.Sodiqov tomonidan Chodak, Chorkesar va G'ova daryolarining havzalari hududlarida qalaydor maydonlar bo'yicha shlix namunalarni o'rganish ishlari amalga oshirilgan. Bunda o'rganilgan namunalarda asosida, Chodaksoyning yuqorigi qismida jinslar tarkibida kassiteritlar miqdorining yuqoriligi kuzatilgan, Pirmirobsoyning quyi sohasi hududlarida sheelit va kinovar aniqlangan.

1949-yilda F.A.Sorqulov, B.A.Chekovtsev va N.G.Kiselev tomonidan Qurama tog' tizmalarining janubiy qismi bo'ylab, flyuoritlarni qidirish bo'yicha ishlar amalga oshirilgan, bunda Oqtepa daryosi hududida 1:50000 masshtabda tasvirga olish ishlari amalga oshirilgan. Bundan tashqari, ushbu tadqiqotchilar tomonidan hududda Kengko'l va yuqorigi Ayg'irbaytalsoy hududlarida ma'dan hosil bo'lish hududlari o'rganilgan. Bu ishlarning natijasida, hududda amaliy jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan, bir nechta flyuoritli ma'danlashuv hududlari aniqlangan.

1951-1952-yillar davomida L.G.Lunina va D.P.Lyashkevich tomonidan flyuorit uchun qidiruv ishlari amalga oshirilgan. 1951-yilda hududda flyuorit qatlamlarini qidirish bo'yicha, 1:50000 masshtabda, 600km<sup>2</sup> maydon bo'yicha xaritalash ishlari amalga oshirilgan. 1952-yilda Chodak-Chorkesar daryolarining havzasi hududida 1:25000 masshtabda, kamyob va polimetall tarkibga ega foydali qazilma jinslar qatlami bo'yicha qidiruv-baholash ishlari bajarilgan. Bunda Chodaksoy havzasi hududi bo'ylab, va unga tutash hududlarda 11 km<sup>2</sup> maydonda 1:10000 masshtabda tasvirga olish ishlari amalga oshirilgan va bunda oldin aniqlangan hududlar bo'yicha ham (Pirmirob, Jo'lsoy va boshqa hududlar bo'yicha) qidiruv-baholash ishlari bajarilgan. Shuningdek, bu davrda Rizoqsoy havzasi hududi bo'ylab ham qidiruv-baholash ishlari amalga oshirilgan.

1954-1960 yillar davomida O'zR FA Geologiya instituti xodimlari tomonidan hududda ma'danli qazilma boyliklar konlari bo'yicha, jins qatlamlarining petrografiya, mineralogiyasi va geokimyosi bo'yicha ishlar olib borilgan. Bunda olib borilgan kompleks geologik ishlarga O.P.Eliseev, I.V.Smorchkov, V.A.Nevskiy va boshqa bir qator ko'zga ko'ringan olimlar boshchilik qilishgan. Shuningdek, hududda intruziv jinslar tanalarini o'rganish bo'yicha, ulardagi aksessor minerallar turlarini, miqdorlarini va tarkiblarini o'rganish yo'nalishdagi tematik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida hudud maydonlarida aksessor minerallarning tarqalishi va moddiy tarkibi bo'yicha umumiy qonuniyatlar aniqlangan,

shuningdek ularning jins qatlamlari bo'yicha alohida hududlarda taqsimlanishi o'rganilgan.[4]

1960-1961 yillarda Chodak geologik-qidiruv ekspeditsiyasi xodimlari (G'.Abdurahmonov va boshqalar) Oqtepa kon maydonida kumushga qidiruv-razvedka ishlari o'tkazilgan. Natijada 30 dan ortiq mayda kumush miqdori yuqori bo'lgan ma'danli tanalar ajratilgan va ularning zaxirasi hisoblangan.

1963-yilda hududda V.M.Shuragin rahbarligida vismut elementi bo'yicha qidiruv partiyasi ish olib borgan va ushbu ekspeditsiya tomonidan ma'dan hosil bo'lish yo'nalishida tematik tadqiqotlar bajarilgan.

1962-1983-yillarda Chodak, Rizaq, Oqtepa va Ayg'irbaytolsoy daryolarini havzasi bo'ylab P.G.Axmatov rahbarligida paleomagnet otryadi ish olib borgan. Shu bilan birga o'sha yillarda Chodak GQE xodimlari (A.B.Bezrukov, Y.V.Borodin va b.) Oqtepa va Dyushali konlarda hamda Terekli, yuqori Jilandi va Sarg'oliz ma'dan namoyonda maydonlarida 1:1000, 1:2000 masshtabda geologik tasvir o'tkazilgan. Undan tashqari yuqori Jilandi ma'dan maydonida tog' va burg'ulash ishlari olib borilgan. Lekin ma'dan namoyondalari kutilgan natijalarni bermagan.

1971-1974-yillarda K.R.Karibulin, V.F.Zinovev, N.I.Solovev tomonidan Chodak ma'danli maydonda aniq qidiruv ishlari o'tkazilgan. Rizaqsoyning o'ng yonbag'ri bo'ylab janubiy Rizaq ma'danli namoyondalar maydonida 1:50000 masshtabda metallometrik va oltin-spektrometrik tasvir o'tkazilgan va maydonni janubiy qismida oltinni anomal ikkilamchi oreollari aniqlangan. Rizaqsoyning o'ng qirg'og'i va Rizaq suvayirgich maydonida 0,1-0,3 dan to 1g/t miqdorli oltin anomaliyalar aniqlangan[3].

1976-1979-yillarda I.A.Ayzenshtat va L.D.Milnichenko tomonidan "Chotqol-Qurama mintaqasida endogen ma'danlarning bosh turlarini istiqbolli baholash" mavzusida tematik ishlar bajarilgan.

1979-1982-yillarda L.G.Lunina, D.P.Lyashkevich va boshqalar tomondan janubiy Rizaq, shimoliy Rizaq, Rizaqsoyning o'ng yonbag'ri bo'ylab va Rizaq suvayirgich maydonlarda batafsil qidiruv ishlari bajarilgan. Aynan shu vaqt ichida SAIGIMS qoshidagi OME (tajriba uslubiy ekspeditsiya) xodimlari (R.G.Yusupov, E.Y.Klyuev va b.) Oqtepa maydonida oltin-kumush ma'danlashuvning aniqlashga doir umumiy qidiruv ishlari o'tkazishgan va 19ta istiqbolli uchastkalar ajratilgan[3,4].

1985-yillardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Geologiya va geofizika instituti, O'zdavgeolqo'mita va boshqa hududiy geologik korxonalar xodimlari kompleks ixtisoslashgan tematik tadqiqotlar olib borishmoqda[4,5].

Kompleksning tarqalish chegarasi Qurama struktura-formatsion zonasi chegarasi bilan o'tadi. U Boboytov turidagi kvarsli dioritlar va dioritlar, sienit-dioritlar va monsonit-dioritlarni o'z ichiga oladi. Ilgari u trias oldi va Permdan keyingi guruhlariga bo'lingan. Keyinroq V.V. Baranov va boshqalar (1972) Permdan keyingi intruzivlar

guruhida tarkibida sienit-monsonit-gabbroli Perm-Trias davriga tegishli yuqori Perm va erta Trias davriga tegishli Oqtepa gabbro-monsonit-sienitli komplekslarni ajratishdi. [2]

Oqtepa intruziv massivi zonal tuzilishga ega, uning petrofundi melanokratik, mezo va leykokratik gabbro uning chekka qismlarida yuzaga ta'sir qiladi. Gabbroidlar alohida zonalikka ega intruzivning markazi bir santimetrdan o'nlab va hatto yuzlab metrgacha o'zgaradi shu bilan birga, leykogabbro massivning Markaziy qismiga gipsometrik jihatdan yaqinroq joylashgan. Monsogabbro va monsonitlar Oqtepa massivining Markaziy qismida 1,7x0,9 km o'lchamdagi oval shaklidagi shtok hosil qiladi va daykalar ko'rinishida ham uchraydi. Shtokning markaziy qismini monsogabbro tashkil etadi, uning qalinligi 0,5km gacha bo'lib, chekka zonasi asosan monsonitlardan iborat [6]

### **NATIJARLAR**

Oqtepa maydonida rivojlangan ma'danlar tarkibi bo'yicha "besh elementli formatsiya"ga mansub hisoblanadi. Bunday ma'danli formatsiya namoyondalari Kanadaning shimoliy-g'arbiy provinsiyalarida (Kobalt, Eko-Bey, Silver-Bey konlar), Germaniya va Chexiyada "Рудные горы" hududida (Yaximov, Shneeberg, Annaberg Iogangeorgshtadt, Freyberg konlar) hamda Norvegiyada (Konsberg), Fransiyada (Shalansh) keng tarqalganligi ma'lum.

Konni magmatizmga nazar solsak gersin tektonik-magmatik rivojlanish bosqichida shakllangan o'rta karbon va Perm-trias davrlarining intruziv komplekslari bilan ifodalanadi. Erta Perm Boboytov gabbro-monsonit-sienit kompleksi hududning markaziy qismini egallab turibdi, gabbro va monsogabbro maydonda 6.5km<sup>2</sup> qismini egallagan.

Oqtepa konida kobalt kumush uran polimetal ma'danlashuv zonalari Jo'salisoy, Mingbuloq, Kengko'l, Oqtepasoy havzalarida joylashgan, ularning tuzilishida gabbroidlar va sienitlar ishtirok etadi.

### **XULOSA**

O'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki Oqtepa ma'dan maydoni foydali qazilmalarga boy. Ma'dan maydonidagi gabbroidlarni o'rganish bir qancha qimmatbaho metallar va ularga yondosh noyob yer elementlari ularning hosil bo'lish sharoitlarini va joylashuv qonuniyatlarini tahlil qilish muhim sanaladi. Bunda, Oqtepa ma'dan maydoni gabbroidlaridan namunalar olib, hozirgi zamonaviy tekshirish usullardan foydalanib, uning mineralogik, petrografik, kimyoviy xususiyatlarini o'rganish, noyob yer elementlari, qimmatbaho elementlarga ixtisoslashuvini o'rganish, maydonda rivojlangan ma'danlashuvni gabbroidlarga aloqadorligini tadqiq etishdir. Ish jarayonida Oqtepa ma'dan maydoni gabbroidlari turlarga ajratiladi, ularning geologik-petrografik, mineralogik-geokimyoviy xususiyatlari va ma'danga

ixtisoslashuvi ta'riflanadi, olingan natijalar Oqtepa ma'dan maydoni o'rganilganlik darajasini oshirishi va maydon va uning atrofida ma'danlashuvga istiqbolli yangi hududlarni o'rganishda foydalanish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

#### **Kitoblar.**

1. Волков В.Н., Лебедев В.А., Гольцман Ю.В. и др. Магматические формации и оруденение Актепинского рудного поля (Кураминский хребет, Узбекистан): последовательность образования и изотопный возраст // Геология рудных месторождений, 1999, том 41
2. Далимов Т.Н., Рафиков Я.М. Вулканизм пермских континентальных рифтов Кураминской зоны. - Ташкент: Фан, 1986.
3. Кабо А.Е., Коваленкер В.А., Русинов В.П. Актепинское рудное поле в Кураминских горах – новое появление серебро-арсенидного оруденения // Геология рудных месторождений, 1992, №3.
4. Т.Н.Далимов, 1982, В.А.Арапов, 1983; Т.Н.Далимов, Я.М.Рафиков, 1988; Ўзбекистоннинг маъданли конлари, 2001;
5. Ўзбекистон Республикасининг геологияси ва фойдали қазилмалари, 1998; Т.Н.Далимов, И.Н.Ғаниев, 2010.

#### **Jurnallar.**

6. Б. С. Нуртаев, У. Д. Мамарозиков О генезисе актепа-чадакской флюидно-магматической рудогенерирующей системы с полиметалльной специализацией (западный Тянь-шань).